O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

2026 - yil 19 - oktabrdagi 300258 - sonli

**YIG'MA EKSPERT XULOSASI**

**Obyekt nomi:** Namangan viloyati Kosonsoy tumani Obodon MFYdagi O‘zbekiston, Istiqlol, Ho‘jaqo‘rg‘on va Diyor ko‘chalarini asfaltlash

**Buyurtmachi:** “Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” DM

**Bosh loyihachi:** "NAMANGAN YO`L-LOYIHA BYUROSI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

**Moliyalashtirish manbai:** Davlat byudjed mablag'lari

**Bosh pudratchi:** Tanlov asosida

**Qurilish turi:** Joriy ta’mirlash

**Murojaat raqami:** 149139

**1. Loyihalash uchun asos.**

1.1. Xalq deputatlari Kosonsoy tumani Kengashining 22.09.2026 yildagi VII-23-90-6-80-K/26-sonli qarori.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan texnik topshiriq.

1.3. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 6.10.2026 yildagi 290644-sonli shartnoma.

1.4. Belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ob’ektning nuqson dalolatnomasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. Tushuntirish yozuvi.

2.2. Ta’mirlash ishlari qiymati.

2.3. Hisoblar.

2.4. Lokal resurs qaydnoma va ehtiyoj resurs qaydnoma.

2.5. Nuqson dalolatnoma.

2.6. Sxematik bosh reja va ko‘ndalang kesim turlari.

2.7. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan qurilish materiallari narxlari, mashina-mexanizmlar bir soatlik xarajati, pudratchining boshqa xarajatlari, ish xaqi va yuk tashish narxlari kattaligi bayonnomasi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

Ta’mirlanayotgan ko‘chalarning uzunligi 3933 metr, yo‘l to‘shamasi kengligi 3,0-4,0 metrni tashkil etadi va quyidagi konstruksiya bo‘yicha ko‘zda tutilgan:

*I-Tur.*

- yangi qum-shag‘al aralashmasi qo‘shib mavjud asos yuzasini ko‘ndalang kesim nishabligini to‘g‘rilash va zichlash;
- qaynoq mayda donador zich asfaltobeton qorishmasidan h-0,05 metr qalinlikda qoplama qurish.

*II-Tur.*

- yangi qum-shag‘al aralashmasi qo‘shmasdan mavjud asos yuzasini ko‘ndalang kesim nishabligini to‘g‘rilash va zichlash;
- qaynoq mayda donador zich asfaltobeton qorishmasidan h-0,05 metr qalinlikda qoplama qurish.

Shuningdek, loyihada 2 dona yo‘l belgilarni o‘rnatish va tasdiqlangan nuqson dalolatnomasiga asosan boshqa ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

–

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- Sxematik bosh reja va ko‘ndalang kesim turlari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Kosonsoy tumani Obodon MFY va tashabbuskor bilan kelishilgan.
- Harakat xavfsizligi tashkil etish rejasi Namangan viloyati IIB JXX YHXB YINQB bilan kelishilgan.

**6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **1 555 871 046** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **4 505 120** so'mga kamaytirilib,
**1 551 365 926** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **1 385 148 148** so'm
QQS: **166 217 778** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga tegishli tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.2. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Namangan viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi. Buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida haqiqatda ishlagan mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlari hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish davriga taaluqli “Pudratchining boshqa xarajatlari” kattaligi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

**7. Xulosalar.**

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Kosonsoy tumani Obodon MFYdagi O‘zbekiston, Istiqlol, Ho‘jaqo‘rg‘on va Diyor ko‘chalarini asfaltlash” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Turdaliyev Murodjon Xasanboyevich, Nishanova Xurshida Maxamadjonovna

**Bosh ekspert** **ATAXO‘JAYEV NOSIRXON NOYIMJONOVICH**